XALQ DEPUTATLARI ANDIJON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 10-may VI-45-39-1-16-K/24 Andijon tumani

Andijon viloyat prokuraturasining 2024 yil 24 apreldagi Xalq deputatlari Andijon tuman Kengashiga deputat etib saylangan Qosimov Nurbek Raximjonoʻgʻlini daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berilishini soʻrab yuborgan 21/12-2024-sonli taqdimnomasini koʻrib chiqish natijalari toʻgʻrisida

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 11-, 12-moddalariga hamda Andijon viloyat prokuraturasining 2024 yil 24 apreldagi Xalq deputatlari Andijon tuman Kengashiga deputat etib saylangan Qosimov Nurbek Raximjon oʻgʻlini daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berilishini soʻrab yuborgan №21/12-2024-sonli taqdimnomasini muhokama qilib, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Andijon viloyat prokuraturasining 2024 yil 24 apreldagi Xalq deputatlari Andijon tuman Kengashiga deputat etib saylangan Qosimov Nurbek Raximjon oʻgʻlini daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berilishini soʻrab yuborgan №21/12-2024-sonli taqdimnomasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Andijon tuman Kengashining 18 - Kengash saylov okrugidan saylangan deputat Qosimov Nurbekni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish ma’qullansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati ushbu qaror nushasini Andijon viloyat prokuraturasiga yuborilishini (qaror loyihasi e-Kengash.gov.uz yagona elektron tizim orqali yuklansin) taʼminlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Andijon tuman Kengashining Reglament va deputatlik odobi masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

TURG‘UNOV
KOZIMJON
MADAMINOVICH